

YOSHLIK DAVRI PSIXOLOGIYASINING OILALARDAGI AHAMIYATI.

Oltinko’l tuman 35 - maktab o’qituvchisi
Po’latova Muharram

Annotatsiya: Bu maqolada yoshlik davri psixologiyasining oilalardagi ahamiyati, oilaning inson va jamiyat hayotidagi o’rni haqidagi fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: individuallik ,intellekt,yetuklik,inqirozlar, o’zgarish, oila, tarbiya, stress.

Kun sayin rivojlanib borayotgan O’zbekistonimizda har sohada ijobiy o’zgarishlarni ko’rishimiz mumkin.Davlatimiz rahbari tomondan olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qarorlar baralla aytishimiz mumkin inson qadrini ulug’lash uchun hizmat qilmoqda.

Mavjudotlar ichida eng oliysi ,azuzu mukarram xilqati -bu inson.Davlatning kichik jamiyat atalmish oilada yashovchi inson albatta.Insonning, jamiyatimizning ertangi kuni shu oilada tarbiya olayotgan farzandlarimizga bog’liq ekan, oila masalasiga jiddiyroq yondashishimizga undaydi. Kichik jamiyat atalmish oilalarda hozirgi kunda ko’zga ko’rinarli darajada muammolar kop.

Oila ikki shaxsning kelishuvi, roziligi bilan Davlat va din tomondan asoslanib tasdiqlab nikoh asosida quriladi.Oilaning eng muhim vazifalari inson zotini davom ettirish ,oila a"zolarining turmushdir.Oiladagi ota ona o’z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang’ich ijtimoiy yo’nalish beradi.Afsuski yosh oilalar ,ular o’rtasidagi muammolar, kelishmovchiliklar oxiri ajralish bilan yakunlanmoqda.Bunga sabab nima? Moddiy yoki ma’naviy yetishmovchilikmi? Oiladagi sog’lom psixologik muhit bir maromda va yoshlarga berilayotgan tarbiya o’z o’rnida bo’lsa bunday nohush holat kelib chiqmaydi albatta.Oilada erkak va ayolning o’z o’rni bo’lishi zarur.Bu ikki oila a'zolar o’z vazifalarini, majburiyatlarini, mas’uliyatni his qilgan holda o’z vazifalarini bajarsa to’g’riroq bo’ladi .

Aks holda kelajakda juda katta oilaviy muammolar ko’payadi. Bizning kelajagimiz farzandlarimizni to’g’ri tarbiyalasak, ular turmush qurishga moddiy va ma’naviy tomondan yetuk bo’lgandagina oila qurdirsak maqsadga muvofiq bo’ladi albatta.

Yoshlar orasida erta turmush qurish ,psixologik tomondan yetuk bo’lmagan yoshlar oilada o’z o’rnini topa olmay kop qiyinchiliklarga uchramoqda.

Yoshlik davri psixologiyasi aynan turmush qurish davriga to’g’ri keladi. 19 -20 yosh qizlarimizning yoshlik davriga to’g’ri keladi. D.Levinsonning fikricha o’spirinlikdan yetuklik davriga o’tish davrida inson stresslarni boshdan kechiradi. Yetuklik davrining dastlabki inqirozi 20 -22 yoshda namoyon bo’ladi.Bu davrda yoshlikning asosiy vazifalari va muammolari :hayotiy rejalarni aniqlashtirish,ularni amalga oshirishga kirishish,o’zligini topish,individualikni ishlab chiqish o’zining huquq va majburiyatlarini bilgan yetuk inson deb anglash ,turmush o’rtoq tanlash va o’z oilasini qurishdir.

Yoshlik davri hayot faoliyatining ijtimoiy faol va mahsuldor davridir. U kattalikning shunday davriki ,unda shaxs va intellekt rivojlanishning eng yuksak darajasiga erishiladi. Aynan shu davrda oila qurgan yoshlarimiz o’z oilalarida milliy sharqona tarbiya olmog’i zarirdir. Oiladagi ajralishlar jamiyatga o’z ta'sirini ko’rsatmay qo’ymaydi.Norasida go’daklarning tirik yetim bo’lib qolishi, hayotdan alamzada ayol yoki erkak atrofda qilarga salbiy ta'sir ko’rsatish ehtimoli kuchli bo’ladi.Oila degan muqaddas dargohdan yosh qizlarimiz qo’rqishni boshlaydi.

Bunday yomon holatlarlarni oldini olib yosh qiz va yigitlarimizga o’zbek ayoli sifatida tarbiya bersak to’g’ri bo’ladi.

Irodali ,sabrli o’zbek ayoli. O’zbek ayoli -bu jumlada bir olam sabrni ,

irodani ,matonatni o’zida mujassam etgan ayol siymosini ko’rish mumkin. Urush yillari turmush o’rtog’ini urushdan qaytishini sabr bilan kutgan vafodor o’zbek ayoli u. O’z halqini yovlardan mardona himoya qilgan To’maris avlodi u.

Aynan yoshlarning yetuklikkacha bolgan davrda o’zbek ayollari mehnatsevarlik, rostgo’ylik , shirinso’zlik, oriyatlik, sabrli vatanparvar kabi ijobiy fazilatlarini singdira olsinsa, demak maqsadga erishgan bo’linadi. O’z hayotiy tajribasidan kelib chiqib kattalar umidli, sabr bilan erishgan yutuqlarini ularga namuna qila olsa ,ularni to’g’ri yol dan odimlab mustahkam oila qurishlariga zamin yaratib beraladi. Milliy va Sharqona tarbiya bermoq har bir o’zbek ayolining burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.S.X.Jalilova.N.A Gayipova "Umumiy psihodiagnostika".2018.
- 2.Do’stmuhammedova Sh.A,Tillashayxova X.A, Baykunosova G.Yu “Yosh davrilari va pedagogik psixologiya” – Darslik Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2021y.
- 3.Ivanov I.,Zufarova M. “Umumiy psixologiya” . O’z.FMJ.,2008.
- 4.Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To’ychiyeva S.M. “Yosh va pedagogik psixologiya” T.TDPU, 2009.
5. ВАХАБОВА, Ў. (2023). ТУРЛИ ПСИХОДИАГНОСТИК МЕТОДИКАЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 134-138.